“AGROBANK” ATB KUZATUV KENGASHINING MAJLIS BAYONNOMASIDAN KO‘CHIRMA

2026 yil 18 noyabr **18 - son** **Toshkent sh.**

Qatnashdilar:	
Bank Kuzatuv kengashi a’zolari	**Ish joyi va lavozimi**
Xaydarov Axadbek Yaxyobekovich	Kuzatuv kengashi raisi
Ibragimov Djamol Kamilovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
Barakayev Otabek Otaqulovich	Kuzatuv kengashi a’zosi
Begjanov Elbek Otabek o‘g‘li	Kuzatuv kengashi a’zosi
Irina Seylanyan	Kuzatuv kengashining xorijiy tajribaga ega mustaqil a’zosi
Giorgi Kvirikashvili	Kuzatuv kengashining xorijiy tajribaga ega mustaqil a’zosi
Dimitri Chichlo	Kuzatuv kengashining xorijiy tajribaga ega mustaqil a’zosi
Tatiana Dogan	Kuzatuv kengashining xorijiy tajribaga ega mustaqil a’zosi
Tavrovskiy Yan Leonidovich	Kuzatuv kengashining xorijiy tajribaga ega mustaqil a’zosi

Majlis kotibi:	
Marufov Javlonbek O‘tkirovich	Korporativ boshqaruv xizmati rahbari

Taklif etilganlar:	
Kaxorov Erkin Azizjonovich	Boshqaruv raisi
Fayzullayev Ulug‘bek	Strategiya va transformatsiya majmuasi rahbari - HR rivojlanish departamenti direktori

KUN TARTIBI

1.	Agrobank” ATB Boshqaruvi raisi o‘rinbosari Xaydarov Jaxongir Xolikulovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish va bank Boshqaruvi a’zolari tarkibidan chiqarish.

Bank Kuzatuv kengashining majlisini o‘tkazish uchun kvorum bank Kuzatuv kengashi a’zolarning yetmish besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak. Uchrashuv kvorumi ta’minlandi va uchrashuv qonuniy deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 78-moddasiga muvofiq majlis sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) o‘tkazildi.

1-masala	**“Agrobank” ATB Boshqaruvi raisi o‘rinbosari Xaydarov Jaxongir Xolikulovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish va bank Boshqaruvi a’zolari tarkibidan chiqarish**	**Ilovalar-1**

Kun tartibidagi masala yuzasidan Boshqaruv raisi Kaxorov Erkin Azizjonovich axborot berdi.

Boshqaruv raisi o‘rinbosari lavozimida ko‘p yillar samarali ishlagan Xaydarov Jaxongir Xolikulovich o‘z arizasiga asosan sog‘lig‘i yomonligi sababli u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish va bank Boshqaruvi a’zolari tarkibidan chiqarishni so‘rab 17.11.2026-yilda Kuzatuv kengashiga ariza (ilova qilinadi) bilan murojaat qilganligini bildirdi

Kun tartibidagi masala bankning ustavi 70-bandi va “Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizom 7-bandiga asosan bank Boshqaruvi a’zolari bank Kengashi tomonidan o‘rnatilgan tartibda lavozimidan ozod qilinishi belgilanganligi sababli Kuzatuv kengash muhokasiga kiritilmoqda.

Shundan so‘ng, yig‘ilish raisi A.Y.Xaydarov so‘zga chiqib, “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruv raisi o‘rinbosari Xaydarov Jaxongir Xolikulovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishni va bank Boshqaruvi a’zolari tarkibidan chiqarishni taklif qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank Kuzatuv kengashi tomonidan kun tartibiga kiritilgan masala o‘rganib chiqildi va ovozga qo‘yildi.

Kun tartibiga kiritilgan masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Kuzatuv kengashi a’zolarining ismi, familiyasi va otasining ismi	**Tarafdorlar**	**Qarshi**	**Betaraflar**
Axadbek Yaxyobekovich Xaydarov	+		
Ibragimov Djamol Kamilovich	+		
Barakayev Otabek Otaqulovich	+		
Begjanov Elbek Otabek o‘g‘li	+		
Irina Seylanyan	+		
Giorgi Kvirikashvili	+		

Dimitri Chichlo	+		
Tatiana Dogan	+		
Tavrovskiy Yan Leonidovich	+		

Kun tartibiga kiritilgan masala yuzasidan ovoz berish natijalaridan kelib chiqib, bank Kuzatuv kengashi

QAROR QILADI:

1. “Agrobank” ATB Boshqaruvi raisi o‘rinbosari Xaydarov Jaxongir Xolikulovich bilan tuzilgan mehnat shartnomasi uning yozma arizasiga muvofiq, sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra ishni davom ettirish imkoni yo‘qligi munosabati bilan xodimning tashabbusiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 160-moddasining sakkizinchi qismiga asosan 2026-yil 17-noyabrdan bekor qilinsin va bank Boshqaruvi a’zolari tarkibidan chiqarilsin.
2. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash bank Boshqaruvi raisi Kaxorov Erkin Azizjonovich zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomani imzolovchilar:

Kuzatuv kengashi raisi: Xaydarov Axadbek Yaxyobekovich

Kuzatuv kengashi a’zolari: Ibragimov Djamol Kamilovich

Barakayev Otabek Otaqulovich

Begjanov Elbek Otabek o‘g‘li

Irina Seylanyan

Giorgi Kvirikashvili

Dimitri Chichlo

Tatiana Dogan

Tavrovskiy Yan Leonidovich

Ko‘chirmada ko‘rsatilgan ma’lumotlar Kuzatuv kengashining 2026-yil 18-noyabrdagi yig‘ilish ma’lumotlari bilan mos keladi.

Korporativ boshqaruv xizmati boshlig‘i: J.Marufov

AGROBANK ATB ASIYADORLIK TIJORAT BANKI * Ko‘chirmalar uchun

Asliga to‘g‘ri